

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

«ISHLAB CHIQARISHDA BOSHQARUV»
FAKULTETI

«IQTISODIYOT» KAFEDRASI

«IQTISODIYOT NAZARIYASI » FANIDAN

KURS ISHI

Mavzu: Iste'mol va unga ta'sir etuvchi omillar

Bajardi:

40-13 gurux talabasi
Norboyev I

Qabul qildi:

Axunova Sh

Farg'ona – 2014

KIRISH	3
 1. ISTE'MOLNING MOHIYATI VA UNING NAZARIY ASOSLARI	
1.1 Iste'mol tushunchasi, mohiyati va ahamiyati	6
1.2 Iste'mol va jamg'armaning o'zaro bog'likligi	7
1.3 Iste'mol funksiyasi to'g'risidagi nazariyalar	9
 2. ISTE'MOLGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	
2.1 Iste'molchilarning daromadlari va xarajat turlari	13
2.2 Iste'molga ta'sir etuvchi asosiy omillar	15
2.3 O'zbekistonda iste'mol tovarlariga bo'lgan talab tarkibidagi o'zgarishlar va tendentsiyalar.....	19
 3. MAMLAKATIMIZDA AMALGA OSFIRILAYOTGAN IQTISODIY ISLOHATLARNI ISTE'MOLGA TA'SIRI	
3.1 Iste'mol tavarlarini ishlab chiqarvchi korxonalami qo'llab-quvatlashda "Mikrokreditbank" ning tutgan o'rni	25
3.2 Joriy yildagi iste'mol ko'rsatkichlari	29
 XULOSA.....	33
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	36

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida olib borilgan oqilona va izchil iqtisodiy siyosat orqali katta muvaffaqiyat va natijalarga erishilmoqda. Jumladan, o'tgan davr mobaynida milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan bir tomonlamalik va inqiroz holatidan chiqarildi; iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyot va uning ayrim sohalaridagi mutanosiblik kuchaydi; bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirilib, rivojlantirildi.

Bundan ko'rinib turibdiki kurs ishi sifatida bu mavzuning tanlanishi bejiz emas. Chunki o'zgarib borayotgan jug'rofiy-siyosiy strukturaning barcha mintaqalarda iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan iste'molning ahamiyati juda katta desak mubolag'aga yo'l qo'ymagan bo'lamiz. Umuman olgandaiqtisodiyotning iste'mol sohasida faoliyat qiluvchi asosiy tarkibiy birligi sifatida uy xo'jaliklari kiritiladi. Uy xo'jaliklari doirasida moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yaratilgan tovar va xizmatlar iste'mol qilinadi. Bozor iqtisodiyotida uy xo'jaliklari mulk egasi hamda ishlab chiqarish omillarini etkazib beruvchilar hisoblanadi. Iqtisodiy resurslarni sotishdan olingan pul daromadlari shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun sarflanadi. Demak iste'mol va unga ta'sir etuvchi omillar mavzusini yoritishda uy xo'jaliklarining daromad, xarajat va joriy yildagi iste'mol ko'rsatkichlarining bazis yildagi iste'mol ko'rsatkichlari bilan o'zaro taqqoslanishi orqali ko'rsatilib beriladi. Mavzuning dolzarbligi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan kichik mulkdorlar sinfini shakllantirishga, mamlakatimiz bozorini iste'mol tovarlari va turli xizmatlar bilan boyitish imkoniyatini yaratadi. Tijorat banklari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chikaruvchi korxonalarga, xususan, ularning modernizatsiya qilinishi va texnologik yangilanishiga moliyaviy ko'mak berish, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholining bandligi ta'minlanishida, ichki iste'mol tovarlari ishlab chikarish xajmining ko'payishi va minglab oilalar daromadlari ortishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasi o'laroq quyidagi raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish xajmi 2011 yilda 11,2 %ga o'sdi, 1991 yilga nisbatan esa bu kursatkich 6,7 barobardan ziyod oshdi. Bugungi kunda iste'mol bozorini sifatli iste'mol tovarlari bilan to'ldirish, aholining iste'mol tovarlariga bulgan talabining shakllanishi va unga ta'sir etuvchi omillami

o'rganish hamda savdoni shu asosda tashkil etib, iste'molchilarning talablarini to'laroq qondirilishini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quwatlash bo'yicha birinchi navbatda ishlab chikarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chikarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutadi. Qolaversa, "... ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chikaruvchilarni qo'llab-quwatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda iste'mol bozorini sifatli iste'mol tovarlari bilan to'ldirish, aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan talabining shakllanishi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish hamda savdoni shu asosda tashkil etib, iste'molchilarning talablarini to'laroq qondirilishini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, iste'mol bozori, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ijobiy yutuqlar qo'lga kiritildi. Chunki respublikamiz o'z mustaqilligiga erishish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida chuqur islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni belgilab oldi. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida davlat tomonidan xalq iste'molidagi asosiy oziq-ovqat tovarlari - iste'mol mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut, qand-shakar, o'simlik yog'i, xo'jalik sovuni, bolalarga kerakli ayrim tovarlarga belgilangan narx-navoni boshqarib turishni zarur deb topdi. Bunda respublikaning ichki iste'mol bozorini tartibga solish va iste'moldagi oziq-ovqat mahsulotlarining ma'lum bir turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish orqali, aholini ijtimoiy himoyalash davlatimizning iqtisodiy islohotlarini amalga oshirishdagi ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblandi..

Fikrimizni aniq ifodalaydigan bo'lsak ushbu mavzuda milliy daromad tarkibiy qismlari tahlili davom ettirilib, uning iste'mol, hamda ishlab chikarishni kengaytirishga ketadigan qismi bo'lgan jamg'arishning iste'molga bevosita bog'liqligi ularning iqtisodiy

mazmunini qarab chiqiladi. Iste'molning darajasini aniqlovchi asosiy omillarni ko'rsatib beriladi. Shu bilan birga shaxsiy daromadning iste'moldan ortiqcha boshqa qismi - jamg'armaning iqtisodiy mazmuni va omillarini ko'rsatib berishga ham alohida e'tibor qaratiladi.

1. ISTE'MOLNING MOHIYATI VA UNING NAZARIY ASOSLARI 1.1

Iste'mol tushunchasi, mohiyati va ahamiyati

Milliy iqtisodiyotda yangidan vujudga keltirilgan qiymat, ya'ni milliy daromad iste'mol va jamg'arish maqsadlarida sarflanadi. Iste'mol - jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalaridan va ishlab chiqarish omillari (ishchi kuchi)dan foydalanish jarayoni. Keng ma'noda iste'mol jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanishni bildiradi. Bunda **unumli va shaxsiy iste'mol** farqlanadi.

Unumli iste'mol bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lib, ishlab chiqarish vositalari va inson ishchi kuchining iste'mol qilinishini, ya'ni ulardan ishlab chiqarish maqsadida foydalanish jarayonini anglatadi.

Shaxsiy iste'mol ishlab chiqarish sohasidan tashqarida ro'y berib, bunda iste'mol buyumlaridan bevosita foydalaniladi.

Iste'mol jarayonida turli xil moddiy va ma'naviy ne'matlardan foydalaniladi. Iste'mol qilinadigan ne'mat turiga bog'liq ravishda moddiy hamda nomoddiy ne'mat va xizmatlarni iste'mol qilish farqlanadi. Bularning tarkibiga kiruvchi moddiy ne'mat va xizmatlar bilan bir qatorda aholining madaniy xordig'i uchun mo'jallangan nomoddiy ne'mat va xizmatlarning o'rni ham albatta beqiyosdir. Buko'rsatkichlar zamirida iqtisodiy yuksalishturadi. Fikrimizni aniqlashtirish maqsadida quyidagi misolga yuzlansak: umumiy ma'noda olganda davlat tashkilotida ishlovchi ishchi hodim hafta davomidagi og'ir mehnatdan so'ng madaniy xordiq olish maqsadida albatta iste'molning nomoddiy turiga kiruvchi kino, teatr yoki konsertga ehtiyoji ortishini kuzatishimiz mumkin. Qondirilgan iste'molning bunday turi orqali kulgusi hafta davomidagi ish unumining ko'tarilishiga bu esa makroiqtisodiy jihatdan iqtisodning barcha ko'rsatkichlarida o'sishni o'zida namoyon qilib beradi. Bundan ko'rinib turibdiki iste'mol iqtisodiyotning barcha ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqdir. Bundan tashqari iste'molni yakka tartibdagi yoki jamoa bo'lib iste'mol qilish bilan ham farqlanadi. Alohida shaxsning o'z ixtiyorida bo'lgan ne'matlarni iste'mol qilishi **yakka tartibdagi iste'molga**, jamiyat a'zolari turli guruhlarining ne'matlardan birgalikda foydalanishi **jamo bo'lib iste'mol qilishga** kiradi.

Milliy daromadning jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga sarflanuvchi qismi **iste'mol fondi** deb ataladi. Iste'mol fondi butun aholining shaxsiy iste'molini, aholiga ijtimoiy xizmat qiladigan muassasalardagi, shuningdek, ilmiy muassasalar va boshqarishdagi barcha sarflarni o'z ichiga oladi.

1.2 Iste'mol va jamg'armaning o'zaro bog'likligi

Iste'mol fondining shaxsiy daromad shaklida aholi qo'liga kelib tushadigan qismi iste'mol sarflari maqsadida ishlatiladi. **Iste'mol sarflari** - bu aholi joriy daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi. Aholi o'z daromadini sarflar ekan, bugungi (joriy) iste'mol hamda kelgusidagi iste'mol hajmini oshirish o'rtasida tanlovni amalga oshiradi.

Kelgusida iste'mol hajmini oshirish imkoniyati joriy davrdagi jamg'armaga ham bog'liq bo'ladi. **Jamg'arma** - bu aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to'planib borishi. Uning hajmi barcha xo'jaliklar daromadidan iste'mol sarflarini ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Daromad tarkibida iste'mol sarflari ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, jamg'arma hajmi shunchalik kam bo'ladi. Jamg'armaning o'sishi esa iqtisodiy ma'noda mablag'larning iste'mol buyumlari xarid qilishdan investitsion tovarlar xarid qilishga yo'naltirilishini bildiradi.

Shunga ko'ra, jamg'arma - bu muddat jihatidan kechiktirilgan iste'molni anglatadi. Shu bilan birga joriy davrda amalga oshirilgan jamg'arma joriy iste'molning chegirilgan qismidir, chunki jamg'arma aholi va korxonalar ixtiyordagi daromadning iste'molga sarflanmagan qismi hisoblanadi:

$$Y = C + S \quad 1.2.1$$

bu erda:

Y - barcha xo'jaliklar ixtiyoridagi daromad;

C - iste'mol miqdori; S -

jamg'arma miqdori.

Shu sababli daromad tarkibidagi iste'mol sarflari va jamg'arma nisbatining o'zgarishi bir qator, ba'zan qarama-qarshi oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Birinchidan, daromadlarning qandaydir qismini jamg'armaga qo'yish oqibatida u tovarlarda bo'lgan talabda o'z aksini topmaydi. Jamg'arma, yuqorida ta'kidlanganidek, daromadlarning ma'lum bir qismini iste'mol qilishdan chegirib qo'yishni bildirib, natijada iste'mol sarflari hajmi barcha ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni sotib olish uchun yetarli bo'lmay qoladi. Aholi daromadining jamg'arilgan qismi o'zining xususiy talabini vujudga keltirmaydi. Buning natijasida sotilmay qolgan tovarlarning ko'payishi, ishlab chiqarishning qisqarishi, ishsizlik va daromadlarning pasayishi ro'y berishi mumkin. Boshqacha tarzda ifodalaydigan bo'lsak jamg'armaga bo'lgan moyillikning o'sishi o'z navbatida iste'molga bo'lgan moyillikning pasayishini anglatadi. Iste'mol sarflarining qisqarishi esa mavjud tovar va xizmatlarning sotilmay qolishiga, ya'ni ishlab chiqarish zahirasiining ko'payishiga olib keladi. Oqibatda yangi kapital qo'yilmalar amalga oshirilmaydi, ishlab chiqarish qisqaradi, ishsizlikning o'sishi va daromadlarning pasayishi ro'y beradi. Aholi tomonidan jamg'armaning haddan ortiq ko'paytirib yuborilishi oqibatida kelib chiquvchi salbiy jarayonlar, ya'ni - «tejamkorlik paradoksi» shunday tarzda namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, jamg'arma talabning etishmasligiga olib kelmasligi ham mumkin, chunki jamg'arilgan mablag'lar tadbirkorlar tomonidan investitsion maqsadlarda ishlatiladi. Bu esa jamg'arma keltirib chiqaradigan iste'mol sarflaridagi har qanday etishmaslikni to'ldiradi.

Uchinchidan, korxonalar ham o'zining barcha mahsulotini pirovard iste'molchilarga sotishni ko'zda tutmaydi, balki uning bir qismidan o'z ishlab chiqarishida foydalanishi mumkin. Shunday qilib, agar tadbirkorlar aholining jamg'armalariga teng miqdordagi mablag'larni investitsiyalarga qo'yishni ko'zda tutsa, ishlab chiqarish darajasi doimiy bo'lib qoladi.

Iste'mol va jamg'arma darajasini aniqlab beruvchi asosiy omil **milliy daromad** hisoblanadi. Lekin milliy daromad tarkibida to'g'ri soliqlar ham mavjud bo'ladi. Shu sababli soliqlar to'langandan keyin aholi qo'lida qoladigan daromad iste'mol sarflari va shaxsiy jamg'arma yig'indisiga teng bo'ladi. Iste'mol va shaxsiy jamg'armaning darajasi bevosita soliqlar to'langandan keyingi qolgan daromad bilan aniqlanadi. Bu daromadni


biz tahlil chog'ida **ixtiyordagi** yoki **sof** daromad deb ataymiz. Demak bu daromad iste'molning ham, jamg'armaning ham umumiy omili hisoblanadi. Chunki jamg'arma daromadning iste'mol qilinmaydigan qismi hisoblansa, soliqlar to'langandan keyingi daromad shaxsiy jamg'armani aniqlab beradigan asosiy omil bo'lib chiqadi. Har yilgi haqiqiy iste'mol miqdori va soliqlar to'langandan keyingi daromad o'rtasidagi farq shu yildagi jamg'arma miqdorini aniqlaydi.

1.3 Iste'mol funksiyasi to'g'risidagi nazariyalar

Iste'mol va jamg'arma hajmi hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik iste'mol va jamg'arma funksiyasi deyiladi. Bu funksiyalarni bayon etishda klassik iqtisodchilar va keynschilarning nuqtai nazarlari farqlanadi. Klassik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, kishilar o'z mablag'larini qo'shimcha daromad keltirgan taqdirda jamg'armaga yo'naltirishga harakat qiladilar. Shunga ko'ra, banklarning real foiz stavkasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning jamg'armaga qiziqishlari shu qadar kuchli bo'ladi, ya'ni jamg'arma real foiz stavkasining o'sib boruvchi funksiyasi hisoblanadi. Aholi daromadlari iste'mol va jamg'arma mablag'larining yig'indisidan iborat ekan, real foiz stavkasining o'sishi bilan iste'mol kamayib, pasayishi bilan esa ko'payib boradi. Boshqacha aytganda, **klassik iqtisodchilar fikriga** ko'ra iste'mol **real foiz stavkasining pasayib boruvchi funksiyasi** hisoblanadi.

J.M.Keyns klassik iqtisodchilarning bu fikrlariga qarshi chiqib, uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari real foiz stavkasiga u qadar bog'liq emasligini, kishilar uchun hamma vaqt joriy iste'molning kelgusidagi iste'moldan afzalligini ta'kidlaydi. U iste'mol sarflari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida uy xo'jaliklarining joriy daromadlarini ko'rsatadi. Demak, **Keyns fikriga** ko'ra, iste'mol **uy xo'jaliklari joriy daromadlarining o'sib boruvchi funksiyasi** hisoblanadi:

Iste'mol funksiyasini grafik ko'rinishida ham tasvirlash mumkin (1.3.1- chizma). Bunda tik o'qqa iste'mol sarflari, yotiq o'qqa esa aholi ixtiyoridagi daromad miqdori joylashtiriladi.



1.3.1-chizma. Iste'mol funksiyasining grafikdagi tasviri.

Har ikkala o'q o'rtasidan 45gradus ostida o'tuvchi OF to'g'ri chiziq iste'mol sarflari va ixtiyordagi (sof) daromadning miqdoran tengligini ifodalaydi. OY o'qidagi har qanday daromad miqdorini ifodalovchi ushbu chiziqda joylashgan nuqta OC o'qning tegishli miqdordagi iste'mol sarfiga teng bo'ladi. Boshqacha aytganda, uy xo'jaligi sof daromadning barcha hajmini to'liq iste'molga sarflaydi. Biroq, bunday tenglik amalda doimo ham ro'y beravermaydi. Iste'mol sarflari miqdori ba'zida joriy sof daromadlar miqdoridan past bo'lishi, ba'zida esa oshib ketishi ham mumkin. Shuning uchun iste'mol egri chizig'i C sof daromad OF chizig'iga mos tushmay, unga nisbatan ma'lum darajada og'adi. Har ikkala chiziqning o'zaro kesishgan B nuqtasi «0 darajadagi jamg'arma»ni anglatadi. Bu nuqtaning chap tomonida iste'mol sarflari daromad miqdoridan yuqori bo'lib, bu **manfiy jamg'arma** deb ataladi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, real hayotda iste'molning ma'lum qismi daromad hajmiga bog'liq boimaydi. Masalan, biron-bir shaxsning daromadi kutilmaganda juda past darajaga tushib qolishi mumkin. Biroq, bu shaxs, daromadi bunga imkon bermagan taqdirda ham, ma'lum darajada ovqatlanish, kiyinish va boshqa zarur iste'mol xarajatlarini amalga oshirishga majbur. U mazkur sarflarni yo oldingi davrda

jamg'arilgan daromadlari hisobiga, yoki o'zgalardan qarz olish hisobiga qoplashi mumkin.


Iqtisodiy adabiyotlarda iste'mol sarflarining bu darajasi **avtonom** (ya'ni, joriy sof daromaddan mustaqil) **holdagi iste'mol darajasi** deyiladi. Bizning grafigimizda bu daraja C_0 nuqtadan boshlanadi.

Chizmadagi B nuqtaning o'ng tomoni esa **ijobiy (musbat ishorali) jamg'arma** deb ataladi. Aynan B nuqtada aholi daromadlari va sarflarining muvozanatiga erishiladi. Daromad miqdori oshib borgan sari bu muvozanat buzilib, jamg'arma miqdori ortib boradi. Bu holatni chizmadagi daromadning Y_1 darajasida iste'molmiqdori E_1 kesmadan, jamg'arma miqdori esa E_0 kesmadan iborat bo'ladi.

Iste'mol yoki jamg'armaga keyingi qo'shilgan moyillik ko'rsatkichi ham ahamiyatlidir. Bu ko'rsatkich iste'molchi daromadining navbatdagi o'zgarishi uning iste'mol va jamg'armaga nisbatan munosabati qanday o'zgarishini aks ettiradi.

Shu o'rinda takidlash joizki iste'mol va jamg'arma funksiyalarini yaxshilab ko'rib chiqadigan bo'lsak quyidagich holatni kuzatish mumkin:

Jamg'arma funksiyasining grafikdagi tasviri bir oz o'zgacha ko'rinishda bo'ladi.



1.3.2-chizma. Jamg'arma funksiyasining grafikdagi tasviri

Chizmadan ko'rinadiki, jamg'arma funksiyasining grafikdagi tasviri iste'mol funksiyasi tasvirining aksi sifatida namoyon bo'ladi. Bu grafikda ham B nuqta O darajadagi jamg'arishni OY yotiq chizig'ining O darajadan pastki qismi manfiy jamg'arishni, yuqori qismi esa ijobiy (musbat) jamg'arishni anglatadi. EgE^kesma sof daromadning Yi darajasidagi jamg'arma miqdorini ko'rsatadi.

Yillar davomida sof daromad hajmi oshib borishi bilan uning iste'mol va jamg'armaga sarflanishi o'rtasidagi nisbat o'zgarib borada. Iste'molchilarning daromadlari qanchalik o'sib borgan sari ularning jamg'armaga bo'lgan moyilliklari shunchalik oshib boradi. Buni iste'mol va jamg'armaga bo'lgan o'rtacha va keyingi qo'shilgan moyillik ko'rsatkichlari orqali ham kuzatish mumkin.

O'rtacha va keyingi qo'shilgan moyillik ko'rsatkichlari tug'risida quyida beriladigan keying boblar orqali alohida to'htalamiz.

2. ISTE'MOLGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

2.1 Iste'molchilarning daromadlari va xarajat turlari

Bizga ma'lumki iste'molga ta'sir etuvchi asosiy omil bu narxdir. Mazkur bobning bu bo'limida narx va boshqa omillarning iste'molga ta'sir jarayonini ko'rib chiqilib, iste'molchilarning daromad va xarajatlarini o'rganib bevosita narx orqali ta'sir etishini tushinish mumkin.

Daromad bevosita mehnat yoki biror mulk (boylik)ni ishlatish evaziga hosil qilinishi mumkin. Ikkinchi bobning bu bo'limida daromadning bevosita mehnat evaziga hosil qilinadigan turi haqida to'htalamiz. Ish haqi mehnat evaziga olinadigan daromad bo'lib, u iste'molchilar daromadining asosiy qismini tashkil qiladi.

Mustaqillik yillaridan hozirgi davrgacha aholining ziyoli qatlamini va ularni ish bilan taminlanishi darajasining yuqori suratlarga ko'tarilib borgani sari aholi yoki iste'molchilarning daromadlari ham shunga yarasha ortib boradi. Iste'molchilarning daromadlarini asosiy iste'mol mahsulotlari jadvali orqali quyidagicha kuzatish mumkin.

Iste'mol xarajatlarini ikki turga bo'lish mumkin: majburiy xarajatlar va erkin xarajatlar. Majburiy xarajatlar - kundalik turmushda ularsiz yashab bo'lmaydigan birlamchi xarajatlar. Unga oziq ovqat mahsulotlari, maishiy xizmat, kiyim- kechak va transportga ketgan xarajatlar kiradi. Uni boshqacha, iste'mol savati deb ham atashadi. Iste'mol savati- chegaralangan baholar aholini himoya qilish maqsadida ayrim ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga belgilangan. Chegaralangan baho uning qiymatidan bir necha barobarga kam bo'ladi.

Qolgan xarajatlar- erkin xarajatlar sirasiga kiradi. Agar odamning yoki oilaning daromadi majburiy xarajatlardan ortsa, uning xarajatlariga mablag'i qolmaydi. Oilaning daromadlari qancha ko'p bo'lsa, uning shuncha oz qismi oziq ovqatga va boshqa majburiy xarajatlarga sarf bo'ladi. Bu qonuniyatni nemis iqtisodchisi Ernest Engel fanga kiritgan.

2.1.1-jadval

Asosiy iste'mol mahsulotlarining barcha savdo tarmoqlari bo'yicha savdosi (ming tonna)

	Iste'mol mahsulot turlari	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
1	Go'sht va go'sht mahsulotlari	292	278	280	265	255	258	245	275
2	Sariyog'	14	14	12	11	10	9	8	9
3	O'simlik yog'i	91	99	151	169	164	129	130	121
4	Qand-shakar	118	90	77	81	86	98	101	113
5	Choy	9	11	10	9	9	10	10	9
6	Sabzavotlar	1004	1036	992	938	945	1048	1084	1182
7	Non mahsulotlari, un hisobida	610	753	682	753	896	772	731	720

Manba: O'zR. Davlat statistika Qo'mitasi ma'lumotlari

Davlat tashkilotlarida ishlovchilar, asosan, oylik maosh ko'rinishidagi ish haqi oladilar. Zavod va fabrikalarning ishchilariga ko'pincha ishbay ish haqi belgilanadi. O'qituvchilar, odatda, o'tgan darslari uchun vaqtbay ish haqi olishadi. Shuningdek, ba'zi korxonalar va tashkilotlar aralash ko'rinishda ish haqi belgilanadi, yani ishchilar qat'iy

oylik maosh tayinlanishi bilan bir qatorda, bajarilgan ish hajmiga bog'liq ravishda qo'shimcha ishbay ish haqi ham beriladi.

Oila daromadlari har doim ham pul ko'rinishida bo'lavermaydi. Masalan, oila o'z tomorqasidan sabzavot ekinlari yetishtirib, iste'mol qilishadi. Bu bilan ular to'g'ridan to'g'ri ne'mat ko'rinishidagi daromadni o'zlashtirishyapdi.

Soliqlar to'langandan keyingi daromad uyxo'jaliklari eng oxirida ega bo'ladigan daromad hisoblanib, alohida shaxs va oilalar o'z tasarrufida bu daromadlarning bir qismini iste'mol uchun sarflaydi va boshqa qismini jamg'armagayo'naltiradi. Yuqorida qayd etilgan ijobiy natijalar aholi jon boshiga o'rtacha daromadning o'sishida o'z ifodasini topgan. Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o'zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o'sib borayotgani alohida e'tiborga molikdir.

Amaliyotda bir qator turli xil tovar va xizmatlar to'plamiyoki iste'mol savatining narx indeksidan foydalaniladi. Farb mamlakatlari va xususan AQSHda bu indekslar ichida eng keng qo'llaniladigani iste'mol narxlari indeksi hisoblanadi. Uning yordamida tirik shahar aholisi sotib oladigan, iste'mol tovar va xizmatlarining 300 turini o'z ichiga oluvchi bozor savatining qayd qilingan narxlari hisoblanadi

2.2 Iste'molga ta'sir etuvchi asosiy omillar Iste'mol va uning hajmiga daromaddan tashqari yana bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi.

Obyektiv omillar alohida iste'mol- chining ixtiyoriga, idrokigabog'liq bo'lmagan omillardan iborat bo'lib, ulardan a sosiylari sifatida quyidagilarniko'rsatish mumkin:

- barcha xo'jaliklar tomonidan jamg'arilgan mol-mulk darajasi;
- narxlar darajasi;
- real foiz stavkalari;
- iste'molchining qarzдорligi darajasi;
- iste'molchilarni soliqqa tortish darajasi.

Narx darajasi oshishining yalpi iste'molga ta'siri(narx omili):

- foiz stafkasining o'sishi;
- narx darajasining oshishi;
- iste'mol buyumlariga talabning pasayishi;
- iste'molchilar pulga talabining oshishi;
- ishlab chiqarish omillariga talabning pasayishi;

Subyektiv omillar asosan iste'molchining o'ziga, uning ruhiyati va bozordagi hatti-harakatiga bog'liq bo'ladi. Bu omillar qatoriga iste'mol va jamg'arishga bo'lgan moyillik, kelgusidagi narx, pul daromadlari, soliq, tovarlar mavjudligi darajasining o'zgarishiga nisbatan munosabatni kiritish mumkin. Iste'molchilarning daromadlari qanchalik o'sib borgan sari ularning jamg'armaga bo'lgan moyilliklari shunchalik oshib boradi.

Subyektiv omillar ta'sirida iste'mol va jamg'arma darajasining o'zgarishini shartli ma'lumotlar asosida tuzilgan quyidagi jadval orqali ko'rib chiqamiz. bu indekslar ichida eng keng qo'llaniladigani iste'mol narxlari indeksi hisoblanadi. Uning yordamida tirik shahar aholisi sotib oladigan, iste'mol tovar va xizmatlarining 300 turini o'z ichiga oluvchi bozor savatining qayd qilingan narxlari hisoblanadi

2.2 Iste'molga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Iste'mol va uning hajmiga daromaddan tashqari yana bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi. Obyektiv omillar alohida iste'mol- chining ixtiyoriga, idrokigabog'liq bo'lmagan omillardan iborat bo'lib, ulardan a sosiylari sifatida quyidagilarniko'rsatish mumkin:

- barcha xo'jaliklar tomonidan jamg'arilgan mol-mulk darajasi;
- narxlar darajasi;
- real foiz stavkalari;
- iste'molchining qarzдорligi darajasi;

- iste'molchilarni soliqqa tortish darajasi.

Narx darajasi oshishining yalpi iste'molga ta'siri(narx omili):

- foiz stafkasining o'sishi;
- narx darajasining oshishi;
- iste'mol buyumlariga talabning pasayishi;
- iste'molchilar pulga talabining oshishi;
- ishlab chiqarish omillariga talabning pasayishi;

Subyektiv omillar asosan iste'molchining o'ziga, uning ruhiyati va bozordagi hatti-harakatiga bog'liq boiadi. Bu omillar qatoriga iste'mol va jamg'arishga bo'lgan moyillik, kelgusidagi narx, pul daromadlari, soliq, tovarlar mavjudligi darajasining o'zgarishiga nisbatan munosabatni kiritish mumkin. Iste'molchilarning daromadlari qanchalik o'sib borgan sari ularning jamg'armaga bo'lgan moyilliklari shunchalik oshib boradi.

Subyektiv omillar ta'sirida iste'mol va jamg'arma darajasining o'zgarishini shartli ma'lumotlar asosida tuzilgan quyidagi jadval orqali ko'rib chiqamiz.

2.2.1-jadval. Iste'mol va jamg'arma darajasi, mlrd. so'm

(shartli raqamlar asosida)

Yillar	Daromad darajasi (Y)	Iste'-mol (C)	Jamg'arma (S)	Iste'molga o'rtacha moyillik (S:Y)	Jamg'arishga o'rtacha moyillik (S:Y)	Iste'molga keyingi qo'shilgan moyillik (AS : AY)	Jamg'arishga keyingi qo'shilgan moyillik (AS : AY)
1995	1500	1300	200	0,87	0,13	-	-
2000	1800	1500	300	0,83	0,17	0,67	0,33
2004	2200	1700	500	0,77	0,23	0,50	0,50

Manba: O'zR. Davlat statistika Qo'mitasi ma'lumotlari

Jadvaldan ko'rinadiki, yillar davomida sof daromad hajmi oshib borishi bilan uning iste'mol va jamg'armaga sarflanishi o'rtasidagi nisbat o'zgarib bormoqda. Iste'molchilarning daromadlari qanchalik o'sib borgan sari ularning jamg'armaga bo'lgan moyilliklari shunchalik oshib boradi. Buni iste'mol va jamg'armaga bo'lgan o'rtacha va keyingi qo'shilgan moyillik ko'rsatkichlari orqali ham kuzatish mumkin.

Aholi daromadining iste'molga sarflanadigan ulushi **iste'molga o'rtacha moyillik (IO'M)** deyiladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$IO'M = -$$

2.2.2

v

C=Iste'mol sarflari hajmi; Y=Sof daromadlar hajmi;

Aholi daromadining jamg'armaga ketadigan ulushi esa **jamg'armaga o'rtacha moyillik (JO'M)** deyiladi:

$$JO'M = \frac{C}{Y} \quad 2.2.3$$

S=Jamg'arma hajmi; Y=Sof daromadlar hajmi;

Bizning misolimizda (2.2.1-jadval) yillar davomida daromad hajmi oshib borishi bilan IO'M pasayib, JO'M esa o'sib bormoqda. Shunisi ahamiyatliki, iste'molga va jamg'armaga o'rtacha moyillik ko'rsatkichlari iste'mol va jamg'armaning daromaddagi ulushini anglatar ekan, ulardan birining qandaydir miqdorga o'zgarishi boshqa birining ham teskari yo'nalishda xuddi shunday miqdorga o'zgarishiga olib keladi.

Shuningdek, iste'mol yoki jamg'armaga keyingi qo'shilgan moyillik ko'rsatkichi ham ahamiyatlidir. Bu ko'rsatkich iste'molchi daromadining navbatdagi o'zgarishi uning iste'mol va jamg'armaga nisbatan munosabati qanday o'zgarishini aks ettiradi.

Daromad hajmining o'zgarishi natijasida iste'mol sarflari hajmining o'zgarishi darajasi **iste'molga keyingi qo'shilgan moyillik (IQM)** deyiladi, yoki

$$IQM = \frac{\Delta C}{C} : \frac{\Delta Y}{Y} \quad 2.2.4$$

Daromad hajmining o'zgarishi natijasida jamg'arma hajmining o'zgarishi darajasi

jamg'armaga keyingi qo'shilgan moyillik (JQM) deyiladi, ya'ni:

$$JQM = \frac{\Delta S}{S} : \frac{\Delta Y}{Y} \quad 2.2.5$$

AS =jamg'armadagi o'zgarish AY =
sof daromaddagi o'zgarish

Demak, sof daromadning o'sgan qismi ham yo iste'molga, yoki jamg'armaga sarflanadi. Bu sarflangan qismlar o'rtasidagi nisbat o'zgargan taqdirda ham ularning umumiy yig'indisi lga teng bo'ladi, yani:

$$— + — = 1,0. \text{ 2.2.6 A Y A Y}$$

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, tadbirkorlik faoliyatining samarali amalga oshishida jamg'arish jarayonlarining ahamiyati beqiyosdir. Shunga ko'ra, jamg'arishning mohiyati, uning omillari va samaradorligi ko'rsatkichlarini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi

2.3 O'zbekistonda iste'mol tovarlariga bo'lgan talab tarkibidagi o'zgarishlar.

O'zbekistonda mustaqilligimizning birinchi kunidan boshlaboq iste'mol tovarlari bozorini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Keyingi yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlari bozorida juda katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Ya'ni:

- birinchidan, iste'mol tovarlari bozorida sotuvchilarning monopoliyasi deyarli barham topdi. Hozirgi davrda iste'mol tovarlar turli manbalardan, xilma- xil mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan erkin raqobat sharoitida keltirilmoqda.
- ikkinchidan, iste'mol tovarlari bozorining infratuzilmasi bozor iqtisodiyoti sharoitiga yaqinlashtirildi. Hozirda chakana savdo tashkilotlari aksariyat ochiq turdagi aksionerlik jamiyatlar shaklida faoliyat kursatmoqda. Ulgurji savdo tashkilotlari va ishlab chikaruvchilar bilan munosabatlar teng huquqli iqtisodiy mustaqillik va o'zaro manfaatdorlikka asoslangan.
- uchinchidan, iste'mol tovarlari bozori davlat boshqaruvisiz mustaqil ravishda tartibga solinadigan tizimga aylanmoqda. Agar ilgari asosiy iste'mol tovarlari davlat fondlari yoki davlatlararo shartnomalar asosida keltirilgan bo'lsa,

hozir iste'mol bozorida asosiy o'rinni shaxsiy tashabbus bilan faoliyat kursatuvchi savdo korxonalari, xususiy tadbirkorlar egallagan.

Savdo va ishlab chikarish sohasida xususiy mulkchilikka asoslangan tadbirkorlik muvaffaqiyatli iqtisodiy o'zgarishlarga kalit bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 21 yanvar "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 1995 yil 5 yanvar "Xususiy tadbirkorlikda tashabbus kursatish va uni rag'batlantirish to'g'risida"gi Farmonlari ham aynan shu faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu tadbirlarning hammasi O'zbekiston Respublikasida iste'mol bozorini shakllanishi va amal qilishi uchun zamin yaratmoqda.

Shunday qilib, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash sharoitida aholi ehtiyojlarini, talablarini chuqur o'rganish, ishlab chikarishda aholining iste'mol tovarlariga bulgan talablarini ta'minlash, to'lov qobiliyatiga ega talab va mahsulot taklifming o'sib boruvchi mutanosibligi, ichki bozorni shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va marketing faoliyatini amalga oshirishning asosini tashkil qiladi.

Tahlillar kursatishicha, respublikamiz iqtisodiyotining xususiyatlari yuqoridagi omillar ichida narx omillari va iste'molchilarning pul daromadlari alohida ahamiyat kasb etayotganligini belgilab bermoqda. Hozirgi kunda iste'molchilarning o'zini tutishi nafaqat shaxsiy did yoki afzalliklarga bog'liq bo'lmasdan, balki iste'molning minimal me'yorini saqlab qolish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Hozirgi kunga kelib, O'zbekistonda iste'mol bozorini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, iste'mol bozorini rivojlantirish orqali aholi o'rtasida iqtisodiy munosabatlar amalga oshiriladi, ularning moddiy ehtiyojlari qondiriladi. Shuning uchun ham iste'mol bozori, uni rivojlantirish va faoliyatini takomillashtirish

ustuvor vazifa hisoblanadi. Chunki, hozirgi kunda yuz berayotgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining O'zbekistonga ta'sirining jiddiy bo'lmasligi uchun iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Iste'mol tovarlari va xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun avvalo ular faoliyatida marketing faoliyatini maqsadli tashkil etish lozim. Ushbu marketing faoliyati esa tovarlarni sotish bilan shug'ulanuvchi sotuvchilar va shu tovarlarni xarid qilish uchun kelgan xaridorlarni yuqori darajada tashkil etilgan servis asosida kutib olishga qaratilgan tadbirlarning yig'indisi bo'lib, uning mamlakat miqiyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, bu sohada amalga oshirilgan ishlar ko'lamini zamonaviy marketing tamoyillari asosida yo'lga qo'yish zaruriyatini belgilaydi. Bu bozorda foydalanuvchilar uchun kursatilayotgan xizmatlar va va sotiladigan mahsulotlarni xarid qildirish aynan iste'mol bozorida marketing faoliyati shakllanishi va rivojlanishining istiqbollari bilan bog'liqdir.

O'zbekiston iqtisodiyotining uzluksiz rivojlanishida erishilgan bugungi kunda iste'mol tovalari bozorining rivojlanganlik darajasi, bozor sig'imi, segmentlarning to'yinganligi, talab va taklif nisbatida mamlakat aholisining moddiy iste'moli, daromad va xarajatlari, ya'ni farovonligi darajasida, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida namoyon bo'ladi.

Respublikamiz aholisi talabini shakllantiruvchi omillar to'g'risidagi fikrimizni davom ettiradigan bo'lsak, shuni yana bir bor ta'kidlashimiz zarurki, biz o'rganayotgan kategoriya - talabga ta'sir etuvchi eng muhim omil bu aholi daromadlaridir. Talabning tarkibiga aholining turmush tarzi va kasb-kori ham jiddiy ta'sir kursatadi. Masalan, shahar aholisi qishloqnikiga nisbatan o'z daromadlarining katta qismini poyafzal, trikotaj mahsulotlari, musiqa asboblari va jihozlarni xarid qilishga sarflasalar, qishloq aholisi velosiped, mototsikl, alohida gazlama turlari,

rezina poyafzal va hokazolarga sarflaydilar. Aholi kasb tarkibining talabga bulgan ta'siri pul daromadlari orqali ko'zga tashlanadi. Bunda turli kasb guruhlarining iqtisodiy imkoniyatlarini chuqur o'rganish zarur.

Respublikamiz qishloq aholisi talabining xajmi va tarkibi ko'p jihatdan natural (notovar) iste'moli xajmi bilan, ya'ni shaxsiy foydalanishga bozor vositasisiz keltiriladigan mahsulotlar bilan belgilanadi. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida natural iste'molning solishtirma sig'imi o'tgan yillardagiga nisbatan o'smoqda. Bunday o'sish kartoshka, tuxum, sabzavotlar, sut, go'sht mahsulotlarida ancha yuqori.

Talabga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida demografik xususiyatlar ham muhim ahamiyatga ega. Ularning ta'siri bevosita hamda boshqa omillar orqali bo'lishi mumkin. Aholining yosh tarkibi va oila a'zolarining soni singari demografik omillar talabning xajmi va tarkibi bo'yicha shakllanishiga ta'sir kursatadi. Talab tarkibiga shahar va qishloq aholisi soni o'rtasidagi nisbat jiddiy darajada ta'sir kursatadi, chunki aholi bu toifalarining iste'mol darajasi bir-biridan farq qiladi.

Talabga ta'sir etuvchi demografik omillar qatorida oila tarkibi alohida ajralib turishi bejiz emas. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, oila kattalashgan sari iste'mol tovarlarini xarid qilish harajatlari oshib boradi. Shu bilan birga oila a'zolari soni ortib borgani bilan umumoilaviy foydalaniladigan tovarlarni xarid qilish uchun sarflanadigan xarajatlar ulushi ko'paymay, aksincha kamayadi. Oilani talabni shakllantiruvchi omil sifatida tahlil qilganda oila tarkibiga e'tibor berish muhimdir. Ishlovchilar va ularning qaramog'ida bo'lganlar, bolalar, ayollar va erkaklarning ulushi, ayniqsa ayollarning oladigan daromadlari talabning xajmi va tarkibini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi ish o'rinlarini yaratish 2008-2012 yillarda aholi farovonligini yuksaltirish strategiyasini amalga oshirishda muhim hayotiy ahamiyatga egadir.

Ushbu keng qamrovli strategiya iqtisodiy o'sish xususiyatlarini o'zgartirish, aholi bandligini, jumladan iste'mol, mahsulotlarni qayta ishlash sanoati, engil sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish, kichik korxonalarda mashinasozlik sanoati uchun ehtiyot va butlovchi qismlar ishlab chikarishni mahalliyashtirish, xizmat kursatish va kasanachilik sohasini rivojlantirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, ayni paytda ijtimoiy hamda iqtisodiy infratuzilmaga, jumladan, qishloq joylarga davlat investitsiyalarini yo'naltirishni ko'paytirish hisobidan qayta taqsimlash siyosatini mustahkamlash (faqat maqsadli ijtimoiy transferlar shaklidagina emas) imkonini beradigan qator strategik choralarni nazarda tutadi.

Yuqorida qayd etilganidek, so'nggi yillarda mamlakatda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari ko'zga tashlanmoqda. Respublikamizda 2000-2012 yillarda YAIM 2,3 barobar ko'paygan bo'lsa, sanoat ishlab chikarish xajmi 2,7 barobar, jumladan iste'mol mollari ishlab chikarish esa 4,4 barobar oshdi. Ushbu yillarda sanoat mahsulotlari eksport xajmi 4,6 barobar oshdi. Jami eksport tarkibida sanoat mahsulotlarining ulushi 56,1 %dan 60,4 %ga ko'tarildi. Sanoatning jadal rivojlanishi hisobiga YAIM tarkibida uning ulushi 14,2 %dan 24 %gacha ko'tarildi.

Barqaror yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda sanoatning hissasi oxirgi yillarda mavjud salohiyatdan orqada qolmoqda. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti hisob-kitoblariga ko'ra, 2005 yilda YAIM o'sishini ta'minlashda sanoatning ulushi 13,2 % bulgan bo'lsa, 2012 yilda 9,6 %ni tashkil etdi. Buning asosiy sababi 2010-2013 yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chikarish o'sish sur'atlari YAIM o'sish sur'atlaridan orqada qola boshladi. Agar ushbu yillarda YAIM o'rtacha yiliga 8,3 %dan oshgan bo'lsa, sanoatda bu kursatkich 7,5 % bo'ldi. Respublikamizda 2011-2015 yillarda sanoatni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturda 2015 yilda YAIM tarkibida sanoatning ulushini 28 %ga etkazish nazarda tutilgan. Bu kursatkichga erishish uchun tarmoqda o'sish sur'ati

yiliga 10-12 %dan kam bo'lmasligi lozim. Yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda tarmoqda, ayniqsa gaz-kimyo, kimyo va neft- kimyo, elektrotexnika, oziq-ovqat tarmoqlarida katta foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjud.

Yuqorida qayd etilgan ijobiy natijalar aholi jon boshiga o'rtacha daromadning o'sishida o'z ifodasini topgan. Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o'zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o'sib borayotgani alohida e'tiborga molikdir. O'tgan 2012 yilda ushbu kursatkich 51 %ni tashkil qildi, boshqacha aytganda, odamlar daromadining yarmidan ko'pi birinchi navbatda tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes hisobidan shakllanmoqda.

Ana shu davrda aholining banklardagi omonatlari o'sishi 34,6 %ni tashkil qildi, so'nggi o'n yilda esa 40 barobardan ziyod oshdi. 2013 yilda mamlakatimizdagi barcha investitsiyalarning 22 % dan ortig'ini aholi investitsiyalari tashkil etdi.

O'zbekistonda aholining eng ko'p ta'minlangan 10 %i va eng kam ta'minlangan 10 % qatlami daromadlari o'rtasidagi tafovut 2012 yilda atigi 8,0 barobarni tashkil etdi. Bu jahondagi eng past kursatkichlardan biri bo'lib, mamlakatimizda jamiyatning keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik borasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning samarasidir.

Har yili o'tkaziladigan oilalar byujetini tekshirish natijalariga oid ma'lumotlarning 2013-yildagi tahlili shuni kursatadiki, kam ta'minlanish muayyan darajada bandlik darajasi bilan bog'liqdir. Masalan, byudjet tekshiruvlari ma'lumotlariga ko'ra, kam ta'minlangan oilalarning mehnatga layoqatli a'zolarining atigi 15 %i ish bilan band. Boy oilalarda esa bu kursatkich 61 %ni tashkil etadi. Bu oilalar turmush darajasini oshirishda bandlik muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Aynan shu bois mamlakat Prezidenti va hukumatining strategiyasiga muvofiq ish bilan bandlikni kengaytirish yaqin davrda mamlakatni rivojlantirishga doir muhim ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

2.3.1-jadval

Oilalar real daromadining oshishi

Yillar	O'tgan yilga nisbatan (%)	2000 yilga nisbatan (%)
2000	124,7	100,0
2001	117,9	117,9
2002	111,4	131,3
2003	101,0	132,7
2004	112,9	149,8
2006	120,2	180,0
2008	144,5	260,1
2009	127,2	250,9
2010	123,0	251,3
2011	123,1	262,2
2012	151,1	274,7

Manba: O'zR. Davlat statistika Qo'mitasi ma'lumotlari

Biroq daromadlar miqdori o'sishining o'rtacha kursatkichi mamlakatdagi turmush darajasini to'la aks ettira olmaydi. Birinchidan, bu kursatkich daromadlar o'rtasidagi tengsizlikni va daromadlarning o'sish sur'atidagi tafovutlarni (hududlar va aholi qatlamlari o'rtasidagi) ifoda etmaydi. Ikkinchidan, ma'lumki, daromad o'tish davri iqtisodiyotini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda turmush darajasining nisbatan pastroq kursatkichi hisoblanadi va ushbu mamlakatlarda daromad ko'pincha norasmiy xo'jaliklarda shakllanadi, ya'ni deklaratsiya qilinmaydi. 2001-2012

yillarda erishilgan natijalar tahlili kam ta'minlanish darajasining asta-sekin pasayib borayotganidan dalolat beradi (27,5 %dan 25,8 %gacha).

Xorij tajribasidan ma'lumki, aholi daromadlarini shakllantirishda "iste'mol savatchasi" muhim ahamiyat kasb etadi. "Iste'mol savatchasi" - bu aholi fiziologik qobiliyatini tiklash uchun zarur bo'lgan eng muhim iste'mol tovarlar me'yorining ma'lum davrdagi qiymatidir. Har bir mamlakatda "iste'mol savatchasi" tarkibi tub aholining demografik, milliy, tarixiy va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Hozirgi paytga kelib, O'zbekiston "iste'mol savatchasi"ga eng muhim 19 xil oziq-ovqat mahsulotlari kiritilgan. Iste'mol savatchasini o'rganishning iqtisodiy ahamiyati shundan iboratki, uning qiymatidagi o'zgarishlarga qarab, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalarining daromad miqdorlari oshiriladi yoki ma'lum darajada (masalan, 50-70 %) indeksatsiya qilinadi. Iste'mol savatchasidan kelib chiqib, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari asosiy daromadlari indeksatsiya qilinadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni kursatadiki, ularda inflyatsiya darajasi 3-7 % bo'lganda ish haqi va boshqa to'lovlar indeksatsiya qilinadi. Shuni ta'kidlash joizki, iqtisodiyotimizda 2012 yili yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanib, aholining real daromadlari 151,1 %ga oshdi, 2013-yilda esa o'tgan yilgi inflyatsiya darajasi 2012 yildagi 7,0 % o'rniga 6,8 %ni tashkil qildi. Bu avvalambor qat'iy, shu bilan birga, puxta o'ylangan pul-kredit siyosati va inqirozga qarshi ko'rilgan samarali chora-tadbirlarimizning natijasidir.

Lekin shuni unutmaslik kerakki, ish haqini minimal miqdorini belgilashda oilalar "iste'mol savatchasi"ning quyi chegarasi, ya'ni oila a'zolarining asosiy fiziologik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bulgan minimal iste'mol byudjetidan kelib chiqib belgilanishi muhimdir.

Talabga ta'sir kursatuvchi omillar tarkibi bir xilda bo'lmay, ular vaqt sayin o'zgarib turadi. Demak, bu omillar muhim ahamiyatga ega. Pulning qadrsizlanishi,

xom-ashyo va materiallarning etishmasligi, tovar zahiralarining kamayishi va boshqalar to'g'risidagi kundalik axborotlar iste'molchini ko'proq o'ylashga va faolroq harakat qilishga, ba'zi hollarda, bugungi kun uchun kerak bo'lmagan tovarlarni ham sotib olishga undaydi . Bu esa talabning xajmiga ta'sir kursatadi. Talabning hajmi esa o'z-o'zidan istemolning asosiy ko'rsatkichidir.

3. MAMLAKATIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN IQTISODIY ISLOHATLARNI ISTE'MOLGA TA'SIRI.

3.1 Iste'mol tavarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarning qo'llab quvatlashda "Mikrokreditbank" ning tutgan o'rni.

Prezidentimiz rahbarligida iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar rivojiga keng yo'l ochilgani aholi bandligining oshishi va daromadlari o'sishida muhim omil bo'lmoqda. Hozir mamlakatimizda ish bilan band aholining 75 %dan ortig'i aynan kichik biznes sohasida mehnat qilmoqda, tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 54,6 %ga etdi. Bu nainki xalqimiz farovonligi oshayotganidan, balki mamlakatimiz bank-moliya tizimi barqaror ishlayotganidan ham dalolatdir.

Chunki bugun ko'plab rivojlangan davlatlar jahon moliyaviy inqirozining salbiy oqibatlari bilan kurashayotgan bir paytda O'zbekiston bank-moliya tizimi ishonchli faoliyat yuritib, mamlakatimizni taraqqiyot va demokratik o'zgarishlar sari faol harakatlantiruvchi kuch - o'ziga to'q ijtimoiy qatlamni shakllantirishga faol va salmoqli hissa qo'shmoqda.

2012 yilda O'zbekiston bank tiziminingjami kapitali 24,3 %ga, so'nggi uch yilda esa ikki barobar ko'paydi. Hozir kapitalning yetarlilik darajasi 24 %dan oshdi, bu qabul qilingan umumiy xalqaro standardardan uch barobar ortiqdir. 2012 yilda bank tizimining likvidligi 65 %dan ortdi, bu talab etiladigan minimal darajadan ikki barobar ko'pdir.

2013 yilning I choragi davomida O'zbekiston banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar xajmi 2012 yilning shu davriga nisbatan 1,4 barobar oshib, 1,6 trillion so'mni tashkil etdi. Ayni vaqtda

jami moliyaviy xizmatlar tarkibida bevosita bank xizmatlarining ulushi 87,1 %ni tashkil etayotgani ham bu borada izchillik bilan amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamining naqadar kengligini kursatib turibdi.

Tadqiqotlar natijalari xususiy tadbirkorlar tomonidan banklarning umumiy faoliyati yuqori baholanayotganini ko'rsatdi. Deyarli barcha ishtirokchi buni jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta'sirlariga qaramay, O'zbekiston bank tizimi ishonchli va barqaror rivojlanayotgani, xorijiy moliyalashtirish manbalariga qaram emasligi, davlat qarzining kamligi va tashqaridan qarz olishga ehtiyotkorlik bilan yondashish kabi xususiyatlari bilan izohlagan.

Banklarning mikromoliyaviy xizmatlaridan foydalanish darajasini aniqlash maqsadida berilgan savollar dehqon va fermer xo'jaliklariga "Agrobank", yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlar, mikrofirma va kichik korxonalar uchun esa "Xalq banki" va "Mikrokreditbank" filiallarining bu boradagi xizmatlaridan foydalanish afzal ekanini ko'rsatdi.

Mamlakatimiz banklari tomonidan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes-loyihalarini moliyalashtirishga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlariga, qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishiga katta hissa qo'shayotganini 92,4 % ishtirokchi ta'kidlagan.

Tadqiqotlar tijorat banklari tomonidan ayollarning biznes-loyihalari izchil moliyalashtirilayotgani mamlakatimiz xotin-qizlarining oila va jamiyatdagi o'rni mustahkamlanishiga xizmat qilayotganini ko'rsatdi. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga ajratilayotgan mikrokreditlar qishloq taraqqiyoti va farovonligida muhim omil bo'layotgani so'rovda alohida ta'kidlangan. Ishtirokchilarning aksariyati (96,5 %i) buning natijasida qishloqlarda yashayotgan minglab odamlar shaxsiy tomorqasida aholi iste'moli uchun mo'ljallangan mevali daraxtlar va uzum ko'chatlari ekib, ixcham issiqxonalar,

parrandachilik va asalarichilik xo'jaliklari tashkil etayotgani hududlarda aholini ish bilan ta'minlash va oilalar turmushini yanada obod etishda katta ahamiyatga ega ekanini qayd etgan.

So'rovda ishtirok etgan barcha tadbirkor iste'mol tovarlari ishlab chikaruvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashga oid huquqiy hujjatlarda belgilangan imtiyoz va qulayliklar, kredit ajratish tartib-qoidalarini tushuntirish yuzasidan joylarda o'tkazilayotgan amaliy uchrashuv va seminarlarda muntazam qatnashib kelayotganini aytgan.

Ishtirokchilar banklarda tashkil etilgan "Ishonch telefon"larining faoliyatiga ham ijobiy baho bergan. Bu iste'mol tovarlari ishlab chikaruvchi korxonalarda yuzaga kelayotgan masalalarni tezkor hal etish, tegishli maslahatlar olish imkoni sifatida baholangan.

"Ijtimoiy fikr" markazi so'rovi natijalari O'zbekiston bank tizimining iste'mol tovarlari ishlab chikaruvchi korxonalarni rivojlantirish yo'lida olib borayotgan faoliyatiga jamoatchilik yuqori baho berayotganini kursatdi. Bu zamonaviy va qulay bank xizmatlarini keng joriy etish, sohadagi faoliyatni yanada samarali tashkil etish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Zero, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatining izchil qo'llab-quwatlanishi mamlakatimizni yanada jadal rivojlantirishga, O'zbekistonda har bir oila, har bir fuqaro farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, mamlakatimizda 2013 yilga «Obod turmush yili» deya nom berilib, bu borada qabul qilingan Umumdavlat dasturiga asosan tijorat banklari zimmasiga iste'mol tovarlari ishlab chikaruvchi korxonalarni, fermerlikni yanada rivojlantirish, ish bilan bandlikni, aholi farovonligi va real daromadlarining izchil o'sishini ta'minlash, xalq turmush darajasi va sifatini oshirish, munosib uy-joylar va ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish bilan bog'liq mas'uliyatli vazifalar yuklatildi.

Bugungi kunda iste'mol tovarlari ishlab chikaruvchi korxonalar mamlakatimiz taraqqiyotida, awalambor, xalqimiz uchun munosib hayot barpo etish, murakkab va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi o'rin va ta'sirga ega bo'lib bormoqda. E'tiborlisi, ishbilarmonlar o'z mehnati ortidan munosib turmush sharoitini yaratib, jamiyat farovonligini ta'minlashda salmoqli ulush qo'shmoqda. Zero, iste'mol tovarlari ishlab chikaruvchi korxonalar iqtisodiyotning tez o'zgaruvchan bozor talablariga javob beradigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda, yangi ish o'rinlari tashkil qilish va aholi daromadlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekani bilan e'tiborlidir.

Tijorat banklari doimiy ravishda iste'mol tovarlari ishlab chikaruvchi korxonalarni, ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvatlash, ta'lim muassasalari bitiruvchi yoshlarining biznes rejalarini moliyalashtirish masalalariga katta e'tibor qaratib kelmoqda.

Ushbu tamoyil joriy yilda ham davom ettirilmoqda. Iste'mol tovarlari ishlab chikaruvchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, avvalambor, ularning biznes loyihalarini imtiyozli shartlar asosida kreditlashga yuksak ahamiyat berilyapti.

Joriy yilda iste'mol tovarlari ishlab chikaruvchi korxonalarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 6 trln. so'm miqdorida mablag'lar yo'naltirish yuzasidan zarur choralar ko'rilmogda. Mazkur resurslarning 1,2 trln. so'mini mikrokreditlar tashkil etib, bunda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes rejalarini imtiyozli shartlar asosida moliyalashtirish uchun 53,5 mlrd. so'mdan ortiq mablag'lar yo'naltiriladi.

Oilaviy biznes, xususiy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga ajratiladigan mikromoliyaviy xizmatlar miqdori 110,1 mlrd. so'mni tashkil etadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qoramol sotib olish uchun

shaxsiy yordamchi hamda dehqon xo'jaliklariga 106 mlrd. so'm, ayollar tadbirkorligini har tomonlama rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 540 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratish rejalashtirilmoqda.

Joriy yilda tijorat banklarining 155,3 mlrd. so'mlik kredit mablag'lari evaziga respublikamizning ishchi kuchi ko'p bo'lgan 8 ta tumanida xomashyoni chuqur qayta ishlagan holda, to'liq ishlab chikarish sikli bilan to'qimachilik komplekslari barpo etiladi, 45 ta tumanida esa tikuvchilik-trikotaj mahsulotlari tayyorlaydigan ixcham zamonaviy ishlab chikarishlar tashkil qilinadi. O'tkan yil respublikamiz bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi va iste'mol oziq-ovqat tovarlari ishlab chikarishni ko'paytiruvchi yangi korxonalar barpo etish, mavjudlarini rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish bo'yicha 288 loyiha amalga oshirildi. Ushbu maqsadlarga tijorat banklari 47 mlrd. so'm ajratgan.

Bundan tashqari, tijorat banklarining 145,9 mlrd. so'm kreditlari hisobiga respublikaning har bir qishloq tumanida kamida 10 ta parrandachilik xo'jaligi, 500 asalari oilasi, har bir mintaqada kamida 30-40 ta baliqchilik xo'jaligi tashkil etiladi. Natijada o'n minglab qishloq aholisi doimiy ish bilan ta'minlanadi.

Banklar so'nggi paytda qishloq infratuzilmasini o'zgartirish jarayonlarida ham faol ishtirok etmoqda. 2014 yil uchun qishloq mavzellarida zamonaviy savdo-maishiy va boshqa turdagi xizmat kursatish obyektlarini yaratish uchun 16 mlrd. so'm atrofida kredit ajratish mo'ljallanmoqda. Shu bilan birga, qishloqlarda yashovchi aholining uzoq muddat foydalaniladigan mahalliy uy-ro'zg'or buyumlarini sotib olishi uchun ajratiladigan iste'mol kreditlari miqdori 1,3 barobar oshirish rejalashtirilgan.

Bir so'z bilan aytganda, tijorat banklari keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarda faol ishtirok etish hamda iste'mol tovarlari ishlab chikaruvchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatimizda aholi turmush farovonligini

oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar ijrosiga, aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlari tashkil qilishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

3.2 Joriy yildagi iste'mol ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ijallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida joriy yildagi umumiy iste'mol ko'rsatkichlari to'grisida ham alohida to'htalish qilganligi ham iste'molning nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ichida, balki mamlakatimiz iqtisodiy ko'rsatkichlari ichida ham salmoqli o'rin egallaganini ko'rsatib beradi.

Mamlakatimizda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni tubdan oshirish bo'yicha o'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar ham amaliy samarasini bermoqda.

O'tgan yili ana shunday tovarlar ishlab chiqarishning o'sish hajmi 14,4 foizni tashkil etdi va yalpi sanoat hajmida ularning ulushi 35,5 foizga yetdi. Bunday tovarlarning raqobatdoshligi nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham tobora ortib bormoqda.

Hech shubhasiz, bu borada sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ko'lamini kengaytirish bo'yicha bajargan ishlarimiz muhim rol o'ynadi.

So'nggi 3-yilda mamlakatimizda mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi qariyb ikki barobar oshdi. Faqat o'tgan yilning o'zida 455 ta korxonada mahalliyashtirish dasturi asosida 1 ming 140 ta loyiha amalga oshirildi. Buning natijasida ishlab chiqarish hajmi 1,2 barobar ko'paydi va import o'rnini bosish bo'yicha yakuniy samara 5 milliard 300 million AQSh dollarini tashkil etdi.

3.3.1-jadval

Iste'mol tavarlarini ishlab chiqarishning o'sish suratlari

(o'tgan yilga nisbatan foiz)

		2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
1	Jami iste'mol tavarlari	120.7	118.6	117.7	113.9	112.4	111.1	107.8
	Shu jumladan:							
2	Oziq- ovqat mahsulotlari	116.8	111.4	120.2	105.7	110.2	116.4	108.7
3	Nooziq ovqat mollari	121.9	122.6	115.0	119.5	114.0	108.9	108.1
4	Yengil sanoat mollari	98.1	107.2	106.5	119.0	133.5	120.9	116.2
5	Aroq-vino mahsulotlari va pivo	134.8	120.9	131.1	112.6	109.7	103.7	102.1

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi - 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi - 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu

avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.

2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi.

Yuqoridagi fikrlarning mantiqiy davomi sifatida yalpi milliy mahsulot(YAMM) va yalpi ichki mahsulot(YAIM)larning yuqori da joriy yildagi qiymat ko'rsatkichlariga to'htalgan bo'lsak, endilikda ularning oldingi yillardagi statistikasini malum jadval ko'rinishida ko'rsatsak:

3.3.2-jadval

YAMM va YAIM o'rtasidagi tarkibiy nisbatlar

----- YaIM -----		
Mamlakat ichidagi ishlab chiqarish		Chet ellardagi milliy korxonalar mahsuloti
Xorijiy korxonalar mahsuloti	Milliy korxonalar mahsuloti	
mi	m ₂	
4 trln.so'm	24 trln.so'm	
		>- >
		6 trln.so'm

YaMM -----

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sonaga yo'naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qoldi va umumiy xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz berayotgan jiddiy sifat o'zgarishlari alohida e'tiborga sazovordir.

Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015-yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturiarining izchil amalga oshirilishi natijasida

sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2013-yilda yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati 121 foizga, qurilish materiallari sanoati 113,6 foizga, yengil sanoat 113 foizga va oziq-ovqat sanoati 109 foizga o'sgani misolida buni yaqqol ko'rish mumkin.

"Prezidentimiz Islom Karimovning yil yakunlari hisoboti orqali bu ko'rsatkichlar zahirida ya'ni makro va mikro iqtisodiyotlardagi iste'molning barcha turlari, barcha sohalaridagi yutuqlar zahirida katta mashaqqat, ulkan mehnatlar yotganliklarini bot bot ta'kidlar ekan: barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, belimizni mahkam bog'lab, har birimiz o'z joyimizda astoydil mehnat qilsak, Vatanimiz ravnaqi va taraqqiyotiga munosib hissamizni qo'shsak, men ishonaman - oldimizda turgan vazifalar qanday ulkan va murakkab bo'lmasin, biz o'z ko'zlagan ezgu marralarimizga albatta erishamiz. Shu yo'lda barchangizga sihat-salomatlik, kuch-g'ayrat va omad tilayman." - degan so'zlar bilan yakunladilar.

Xulosa

Kurs ishini bajarishdan shunday xulosaga kelindiki, iste'mol - jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalaridan va ishlab chiqarish omillari (ishchi kuchi)dan foydalanish jarayonidir. Milliy iqtisodiyotda yangidan vujudga keltirilgan qiymat, ya'ni milliy daromad iste'mol va jamg'arma maqsadlarida sarflanadi. Buni keng ma'noda talqin qiladigan bo'sak, iste'mol jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanishni anglatib, unumli va shaxsiy istemolga ajraladi. Zamonaviy jahon xo'jaligi vujudga kelmasdan oldin ham xalqaro iqtisodiy munosabatlar (asosan savdo ko'rinishda) mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor iste'mol tavarlariga qaratigan. Iste'mol va jamg'arma hajmi hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bo'g'liqlik iste'mol va jamg'arma funksiyasi deyiladi. Bu funktsiyani bayon etishda klassik iqtisodchilar va keynschilarning nuqtai nazarlari farqlanadi. Klassik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, kishilar o'z mablag'larini qo'shimcha daromad keltirgan taqdirdajamg'armagayo'naltirishga harakat qiladilar. Shunga ko'ra, banklarning real foiz stavkasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning jamg'armaga qiziqishlari shu qadar kuchli bo'ladi, ya'ni jamg'arma real foiz stavkasining o'sib boruvchi funksiyasi hisoblanadi. Aholi daromadlari iste'mol va jamg'arma mablag'larining yig'indisidan iborat ekan, real foiz stavkasining o'sishi bilan iste'mol kamayib, pasayishi bilan esa ko'payib boradi. Boshqacha aytganda, klassik iqtisodchilar fikriga ko'ra iste'mol real foiz stavkasining pasayib boruvchi funksiyasi hisoblanadi. J.M. Keyns klassik iqtisodchilarning bu fikriga qarshi chiqib, uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari real foiz stavkasiga u qadar bog'liq emasligini, kishilar uchun hamma vaqt joriy iste'molning kelgusidagi iste'moldan afzalligini takidlaydi. U iste'mol sarflari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida uy xo'jaliklarining joriy daromadlarini ko'rsatadi.

Iste'molchilarning daromadlari qanchalik o'sib borgan sari ularning jamg'arishga bo'lgan moyilliklari shunchalik oshib boradi.

Aholi daromadlarini shakllantirishda "iste'mol savatchasi" muhim ahamiyat kasb etadi. "Iste'mol savatchasi" - bu aholi fiziologik qobiliyatini tiklash uchun zarur bo'lgan eng muhim iste'mol tovarlar me'yorining ma'lum davrdagi qiymatidir. Har bir mamlakatda

"iste'mol savatchasi" tarkibi tub aholining demografik, milliy, tarixiy va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Hozirgi paytga kelib, O'zbekiston "iste'mol savatchasi"ga eng muhim 19 xil oziq-ovqat mahsulotlari kiritilgan. Iste'mol savatchasini o'rganishning iqtisodiy ahamiyati shundan iboratki, uning qiymatidagi o'zgarishlarga qarab, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalarining daromad miqdorlari oshiriladi yoki ma'lum darajada (masalan, 50-70 %) indeksatsiya qilinadi. Iste'mol savatchasidan kelib chiqib, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari asosiy daromadlari indeksatsiya qilinadi.

Ish haqini minimal miqdorini belgilashda oilalar "iste'mol savatchasi"ning quyi chegarasi, ya'ni oila a'zolarining asosiy fiziologik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bulgan minimal iste'mol byudjetidan kelib chiqib belgilanishi muhimdir. Chunki bu ijtimoiy ishlab chikarishning asosiy omili - ishchi kuchini takror ishlab chikarishni zaruriy sharti bo'lib, ijtimoiy adolat tamoyilining amalga oshishiga yordam beradi.

Tahlillarimiz kursatishicha, respublikamizda kundalik iste'mol tovarlarining asosiy qismini aholining iste'mollarga bo'lgan talabi tashkil etadi. Iste'mol tovarlari iqtisodiy kategoriya sifatida qishloq xo'jaligi, iste'mol sanoati tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olinishini va iste'molchilarga sotilishini tashkil etuvchi xo'jaliklar o'rtasidagi ayirboshlash munosabatlarining majmuasini aks ettiradi.

Iste'mol ko'rsatkichlari to'g'risida umumiy xulosaga keladigan bo'lsak buni joriy yildagi iste'mol ko'rsatkichlari bilan fikrimizni dalilladik. Prezidentimiz rahbarligida iste'mol tovarlari ishlab chikaruvchi korxonalar rivojiga keng yo'l ochilgani ham aholi bandligining oshishi va daromadlari o'sishida muhim omil bo'lmoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida joriy yildagi umumiy iste'mol ko'rsatkichlari to'g'risida ham alohida to'htalish qilganligi ham iste'molning nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ichida, balki mamlakatimiz iqtisodiy ko'rsatkichlari ichida ham salmoqli o'rin egallaganini ko'rsatib beradi.

Prezidentimiz Islom Karimovning yil yakunlari hisoboti orqali bu ko'rsatkichlar zahirida yani makro va mikro iqtisodiyotlardagi iste'molning barcha turlari, barcha sohalaridagi yutuqlar zahirida katta mashaqqat, ulkan mehnatlar yotganliklarini bot bot ta'kidladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoTida. T. O'zbekiston, 1996
2. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" T. O'zbekiston,, 1999.
3. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. T. "O'zbekiston", 2005.

Darsliklar

4. Shodmonov Sh.Sh, G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi.T. : " Fan va texnologoya ", 2005.
5. Qobilov Sh.R. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013.
6. O'lmasov A. Vahidov A. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: " Sharq " , 2006.
7. Shodmonov Sh. Alimov R. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: " Moliya ", 2002.
8. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. T.: " O'zbekiston ", 1999.
9. G.G'. Nazarova. X. Xalilov. A.A. Eshtaev Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: " Toshkent" 2008.
10. Shodiev R.X. Jahon iqtisodiyoti . T., 2004
11. Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.SH., G'afurov U.V. va boshqalar O'zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarida. T.: TDIU, 2007.
12. Bekmurodov A.SH., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2007.
13. A.E.Ishmuxamedov va boshq. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma -T.: TDIU, 2006.

O'quv qo'llanmalar

14. Nazarova G.G',Xalilov.X. Jahon iqtisodiyoti.O'quv qo'llanma. T., 2005

15. Nazarova G.G', Haydarov N. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. T., 2005

Internet resurslari

16. www.gov.uz
17. www.uza.uz
18. www.fikr.uz
19. www.arxiv.uz
20. www.ziyonet.uz
21. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
22. www.cee'.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.
23. www.internetindicators.com - Iqtisodiy indikatorlar Internet veb-sayti.
24. www.economyworld.com - 'hotius Coutsoukis and Information Technology Associates (Axborot Texnologiyalari Assotsiatsiyasi) veb sayti.

